

## **HUQUQNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARINING HUQUQIY PRETSEDENTGA TA'SIRI**

Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi,

TDYU huzuridagi akademik litsey katta o'qituvchisi

Jamiyat rivojlanishi bilan davlat va huquq shakllari ham birgalikda rivojlanib, o'zgarib bordi. Avvalo, shuni alohida qayd etish kerakki, huquq fanining umumnazariy muammolari orasida huquqiy normalarni ifodalash hamda mustahkamlash shakllari rasman-yuridik mazmundagi huquq manbasi sifatida belgilanadi. Huquq manbasining bunday talqini ma'lum darajada shartli bo'lib, ushbu tushuncha boshqacha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, huquq manbasi deganda, huquqiy normalar mazmunini belgilovchi ijtimoiy omillarni; huquqni bevosita ijod qiluvchi kuch bo'lgan davlatni; huquq to'g'risidagi axborot manbalarini tushunish mumkin. Huquq manbasi huquqning normativ tomonini tavsiflash uchun eng muhimlaridan biridir. Buni tan olish nafaqat konsepsiyaning o'zini belgilash, balki u bilan birlashtirilgan huquqiy voqelik hodisalarini ham o'rGANISH zarurligini anglatadi. Shu ma'noda shuni aytish mumkinki, mahalliy huquq nazariyasida bilimda sezilarli bo'shliq mavjud, chunki pretsedent kabi huquqning juda keng tarqalgan manbasi O'zbekiston Respublikasida huquq manbasi sifatida juda keng o'rganilmaganligi mavzuning qanchalik dolzarbligini ko'rsatib turuvchi omillardan biri sanaladi.

Bilamizki, bizda sud va ma'muriy organlar odatda, ijro organlari va huquqni qo'llovchi organlar sanaladi. Shuningdek, sudlar faoliyat "har bir ish individualniy" tamoyiliga asoslangan. Ya'ni sud huquq ijodkori emas, qonunchilikka asosan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini tiklaydigan organ sanaladi. Lekin shunday bo'lsa-da, sudlar faoliyatida qonun chiqaruvchi organ faoliyatiga oid harakatlar kuzatilmoqda.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 98-moddasida qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlariga o'zgarishlar o'z ifodasini topdi. Hususan, mazkur normaga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori ham o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga ega ekanligi belgilandi.

Oliy sudning qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanishi ayrim olimlar tomonidan hokimiyatlar bo'linishi prinsipini buzilishi sifatida baholab, sud



hokimiyyati o‘zi kiritgan loyihani keyinchalik o‘zi tekshirishi mantiqsizlik ekanligini, shuningdek sudning vazifasi sudlovni amalga oshirish “qonun chiqaruvchining yordamchisi bo‘lishi kerak emasligi”ni ta’kidlashadi.

Ikkinchidan, Oliy sudi plenumi tomonidan chiqariladigan plenum qarorlarida ba’zi hollarda talqin qilish barobarida yangi huquqiy normalarning ham mavjudligini ko‘rish mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumining “Xususiylashtirilgan turar joylarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilish bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 3-soni qarorining 16-bandи quyidagicha keltirilgan:

“Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasiga muvofiq xususiylashtirilgan turar joyda uni xususiylashtirilishiga rozilik bergen uy egasining boshqa oila a’zolari yashayotgan bo‘lsalar, ularning hammasi shu turar joyning egasi hisoblanadilar, egallab kelinayotgan turar joy esa xususiylashtirish natijasida umumiy mulkka aylanadi. Bu qoida turar joy egasining vaqtincha bu yerda yashamayotgan oila a’zolariga ham tatbiq qilinadi.

Ijarachi bilan birga yashayotgan va uning oila a’zosi yoki sobiq oila a’zosi bo‘lib hisoblangan voyaga yetmagan shaxslar ijaraga olish shartnomasidan kelib chiqadigan barcha huquqlardan teng foydalanishlari sababli ular egallab turgan turar joylari xususiylashtirilgan taqdirda voyaga yetgan foydalanuvchilar bilan teng ravishda shu turar joyga nisbatan umumiy egalik huquqiga ega bo‘ladilar.

Turar joy oila a’zolarining biri tomonidan bepul xususiylashtirilgan taqdirda ham yuqorida ko‘rsatilgan shaxslar shu asoslarga ko‘ra umumiy mulkning teng huquqli ishtirokchilari bo‘lib qoladilar”.

Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi esa quyidagicha ifodalangan:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan (uy ro‘yxatidan o‘tgan) O‘zbekiston Respublikasining, boshqa davlatlarning fuqarolari, fuqaroligi bo‘limgan shaxslar xususiylashtirish subyektlari hisoblanadilar.

2. O‘zbekiston Respublikasining vazirliklari, idoralari, korxonalari, muassasalari, tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslari, boshqa davlatlarning yuridik shaxslari o‘z xodimlari va pensionerlarini uy-joy bilan ta’minalash uchun uy-joy fondi egasidan uy-joy sotib olishlari mumkin.

3. Davlat uy-joy fondi tarkibidagi uylarda ijara shartnomasi asosida turar joyni egallab turgan fuqarolar birgalikda yashab turgan barcha balog‘at yoshidagi oila a’zolari va turar joy maydonida haqi bo‘lgan boshqa shaxslarning roziligi bilan shu



turar joyni ushbu Qonunda ko‘zda tutilgan shartlarda o‘z mulki qilib, shu jumladan birgalikda yoki ulushbay asosida egalik qilish uchun sotib olishga haqlidirlar.

4. Xususiyashtirilgan turar joy egasining oila a’zolari hamda turar joy maydoniga haqli bo‘lib, uni xususiyashtirishga rozilik bergan shaxslar shu turar joy maydonidan foydalanish huquqini saqlab qoladilar, xususiyashtirilgan uy-joyni sotish yoki ijaraga berish ularning roziligi bilan amalga oshiriladi”.

Bu yerda e’tibor bersak, qonunda aytilmagan qismlari yangi normalarini korishimiz mumkin, masalan, turar joyning shu obyekt egasining oila a’zolari uchun umumiyligini bo‘lishi, bu huquqqa sobiq oila a’zolari ham ega bo‘lishi kabi yangi-yangi normalar keltirilgan.

Shunga o‘xhash holatlar kuzatilishi, uning pretsedentga o‘xshatib qo‘yishi mumkin, bunda aynan sud mavjud qonunchilik hujjatlari asosida yo huquqni qo‘llash hujjati, yoki huquqni sharhlash hujjati chiqaradi, qonunchilik hujjati emas. Unga bu vakolatning berilishi hokimiyatlar vakolatlarining taqsimlanishi prinsipiga zid kelib qolishi mumkin.

Olimlar o‘rinli ta’kidlaganlaridek, huquq rivojining zamonaviy tendensiyalaridan biri – zamonaviy huquqiy tizimlarining manbalari mazmun-mohiyatida yuz berayotgan o‘zgarishlardir. Ushbu tendensiya o‘zida ikki jihatni ifoda etadi: bir tomonidan, butun dunyo davlatlari huquqiy tizimi manbalari ichida qonunning roli oshib borishi va anglo-sakson huquqiy oilasiga mansub davlatlarda ham klassik presedentlar ma’lum darajada “sharhlov presedentlari” tomonidan “sinqib chiqarilmoqda”, ikkinchi tomonidan esa, romano-german huquqiga mansub mamlakatlarda esa tobora sud qarorlarining, ayniqsa yuqori sudlar Plenumi qarorlarining roli ortib borishi holatini kuzatish mumkin. Ikkinchi holatda sud o‘zi mustaqil hal etadigan holatlar (sudebnoye usmotreniye, (judicial discretion)) doirasining kengayishini ko‘rsatish zarur. Shu munosabat bilan olimlar o‘rtasida sud qarorlari huquq manbasi hisoblanadimi yoki yo‘qmi? –degan masala munozaraga sabab bo‘lmoqda.

Biror mamlakatning huquqiy tizimining rivojlanishi undagi huquq ustuvorligini qanchalik yaxshi o’rnatilganligi bilan xarakterlanadi. Bilamizki, huquq manbalari(shakllari)ni aniqlashtirish, hokimiyatlar vakolatining to’g‘ri taqsimlanishi bevosita qonun ustuvorligini ta’minlanganligini ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu bo‘yicha World Justice Project xalqaro fuqarolik jamiyati tashkiloti tomonidan yuritiladigan «Huquq ustuvorligi» indeksiga binoan 2023-yil uchun hisobot e’lon qilindi. Unga ko‘ra, O’zbekiston umumiyligida reytingda 0,50 ball bilan



dunyo miqyosida 142 ta davlat ichida 78- o'rinni egalladi (ilovada kategoriyalari bilan batafsil berildi).

O'zbekistonda huquqiy pretsident masalasining dolzarblii umum huquq oilasiga kiruvchi davlatlarga nisbatan olib qaraganda, biroz amaliy bo'lmasa-da, lekin hozirgi kunda sud amaliyoti hujjatlarining jamlanishi, Plenum qarorlarining chiqarilishi va bu qarorlarning sud tizimida majburiyligi pretsidentga o'xshash holatlarni keltirib chiqarayotganligi va bu sohani yaxshilab o'rganish keraklidan dalolat beryapti. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi tizimiga ega bo'lib, u asosan huquqiy pretsidentga tayanadigan umumiyy huquq tizimlaridan farq qiladi. Fuqarolik huquqi tizimida qonunlar va kodekslar ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar huquqning asosiy manbai hisoblanadi. Biroq, huquqiy pretsidentni batafsil o'rganish O'zbekistonda umumiyy huquqli mamlakatlarga qaraganda kamroq darajada bo'lsa ham, o'z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin, balki hozirgi ketayotgan tendensiyalardan olib qaraydigan bo'lsak, ehtimol kelajakda bu yanada keng joriy qilinishi ham mumkin.

### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Aparova T. V. Ingliz sud amaliyotining asosiy tarixiy tendensiyalari // Akademik. zap. VYUZI. – 1998.- Nashr. 17.- 3-qism;
2. Axmedshayeva M.A. Davlat va huquq rivojining hozirgi zamon tendensiyalari. Darslik – T.: TDYU, 2018 – 207 b.
3. Blishchenko I.P. Doria J. Xalqaro jamoatchilikda pretsidentlar va xususiy huquq. - 2-nashr, qo'shimcha. - M.: MNIMP nashriyoti, 1999. - 472 p;
4. Bogdanovskaya I.Yu. Ingliz huquqida pretsident. - M.: Nauka, 1987. - 144 b;
5. Bosno ST. Sud amaliyoti: ifodalash usullari // Davlat va huquq. - 2003.№1.-S. 19-29;
6. Fatima, K., & Turdialiiev, M. A. Understanding the social change and development in the “third world”: a book overview. 2017. P 18;
7. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik– T.:Adolat, 2007. – 814b;
8. Jochen Lehmann, Dr Thomas Rühle. Legal system in Germany. 2015, page 72;
9. Saydullayev. Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik – T.: TDYU, 2021. – 248 b.